

9-10-2019

QUESTIONS OF INCREASING ECONOMIC EFFICIENCY OF PRODUCTION

Odina Tuychieva

Fergana polytechnic institute Senior lecturer

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu>



Part of the [Education Commons](#)

Recommended Citation

Tuychieva, Odina (2019) "QUESTIONS OF INCREASING ECONOMIC EFFICIENCY OF PRODUCTION," *Scientific Bulletin of Namangan State University*. Vol. 1 : Iss. 8 , Article 20.

Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol1/iss8/20>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in Scientific Bulletin of Namangan State University by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact sh.erkinov@edu.uz.

QUESTIONS OF INCREASING ECONOMIC EFFICIENCY OF PRODUCTION

Cover Page Footnote

???????

Erratum

???????

ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI

To'uchiyeva Odina Nabiyevna
Farg'ona politexnika instituti
Katta o'qituvchi

Аннотасија: Мақоллада ички имконияatlardan oqilona foydalanish asosida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni ta'minlash masalasi yoritilgan yoritilgan.

Калит со'злар: samaradorlik, ishlab chiqarishni tashkil etish, fond qaytimi, jixozlar ish vaqti.

ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОИЗВОДСТВА

Туйчиева Одина Набиевна
Ферганский политехнический институт
Старший преподаватель

Аннотация: В статье рассмотрены вопросы повышения эффективности производства на основе использования внутренних резервов.

Ключевые слова: эффективность, организация производства, фондоотдача, рабочее время оборудования.

QUESTIONS OF INCREASING ECONOMIC EFFICIENCY OF PRODUCTION

Tuychieva Odina
Fergana polytechnic institute
Senior lecturer

Abstract: The article highlights the issue of increasing the efficiency of production on the basis of rational use of internal capabilities.

Keywords: productivity, organization of production, profitability of stocks, working time of tools

Hozirgi davrning asosiy muammolaridan biri iqtisodiy resurslardan tejamkorlik tergap foydalanish asosida yuqori natijalarga erishish hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish cheklangan iqtisodiy resurslardan foydalanish zaruriyatini taqozo etadi. Hukumat miqyosida qabul qilingan qarorlarda ham resurslardan oqilona foydalanish asosida samaradorlikni oshirish masalasi ilgari surilgan. [1] Iqtisodiyotda ushbu jarayon iqtisodiy samaradorlikni oshishi deb ham yuritiladi. Samaradorlik sanoat ishlab chiqarish faoliyatining "ko'zgusi" hisoblanadi. Bu "ko'zgu" da ishlab chiqarishning barcha natijalarini ko'rish mumkin. Ma'lumki har bir tarmoq, korxonalar, qolaversa, har-bir shaxs o'z ishlab chiqarish faoliyatida maksimum foyda olishga intiladi. Buning uchun ma'lum harajatlar qiladi. Ana shu foyda bilan xarajatlar o'rtasidagi farq tarmoq va korxonalar faoliyatining "ko'zgusi" bo'lgan samaradorlikda ko'zga tashlanadi. Ishlab chiqarishning eng yuqori samaradorligi ishlab chiqarish xarajatlarini minimum darajaga keltirishdan iborat.[2] Iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalasi har qanday xo'jalik yurituvchi sub'ektlar oldidagi dolzarb masalalardan bo'lib, bu tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, tejamkorlikni ta'minlovchi investitsion loyihalarni amaliyotga joriy etish orqali hal etilishi mumkin. Amaliyotda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish masalasini ishlab chiqarish sohasida ishlab chiqarishni oqilona tashkil etish yo'li bilan ham hal qilish mumkin. Xususan, korxonalar faoliyatining samaradorligi ko'p jihatdan ishni qanday tashkil etilishiga bog'liq. Ishni yoki ishlab chiqarishni tashkil etish masalasi

korxonada faoliyatiga tegishli ham tashkiliy, ham texnik yoʻnalishdagi masalalarini qamrab oladi. Tashkiliy masalalarga mehnatni tashkil etish va uning motivatsiyasi, kadrlarni tayyorlash va ular malakasini oshirish, ish oʻrinlarini tashkil etish va ularga xizmat koʻrsatishni uyushtirish kabilardan iborat boʻlsa, texnik masalalarga korxonaning maxsuloti mazmuniga mos keluvchi texnika va texnologiya bilan taʼminlash, resurslar bilan taʼminlash va jihozlarni saqlash va ularga oqilona xizmat koʻrsatishni tashkil etish kabilar kiradi. Ushbu qayd etilgan omillar va imkoniyatlardan foydalanish darajasining korxonada koʻrsatkichlariga taʼsirini aniq xoʻjalik yurituvchi subʼekt misolida oʻrganish va xulosa qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Fargʻona shahridagi “UZSUNGWOO” MCHJ qoʻshma korxonasi oʻtkazilgan kuzatuv va tahlil jihozlardan foydalanish va ishlab chiqarishni tashkil etish holatining asosiy iqtisodiy samaradorlik koʻrsatkichlarga qanday taʼsir etishini koʻrsatdi.

1-jadval

Asosiy fondlar samaradorligi tahlili

Koʻrsatkichlar	Oʻtgan yil	Hisobot yili	Faq(+,-)
1. Mahsulot ishlab chiqarish hajmi, ming soʻm.	121212915.4	77497265	-43715650
2. Asosiy fondlarning qiymati, ming soʻm.	95034192	103981018	8946826
3. Jumladan: ishchi mashina va jihozlar, ming soʻm.	67474276	75178276	7704000
4. Ishchi mashina va jihozlarning salmogʻi %	0.710	0.723	0.013
5. Asosiy fondlardan olinadigan samara, ming soʻm	1.275	0.745	-0.529
6. Ishchi mashina va jihozlardan olinadigan samara, ming soʻm	1.796	1.030	-0.765

Manba: “UZSUNGWOO” MCHJ korxonasi maʼlumotlari

Jadvalda koʻrinib turibdiki, asosiy fondlarning faol qismdan foydalanish darajasi oʻtgan yilga nisbatan kamaygan. Buni fondlardan olinadigan fond qaytimining 0.765 ming soʻmga kamayganidan koʻrishimiz mumkin. Fond qaytimining oʻsishi uchun mehnat unumdorligining oʻsish surʼatlari fondlar bilan qurollanish darajasining oʻsish suratidan yuqori boʻlishi kerak.

Shunday qilib korxonada har bir soʻmlik asosiy fond hisobiga 1.275 ming soʻmlik mahsulot ishlab chiqarish oʻrniga 0.745 ming soʻmlik mahsulot yaratilgan, yaʼni asosiy fondlardan olinadigan samara 0.529 ming soʻmga kamaygan.

Ushbu holatga quyidagilar taʼsir koʻrsatgan:

1) Asosiy fondlar tarkibida ishchi mashina va jihozlar ulushining oshishi, yaʼni:
 $+0.013 \cdot 1.796 = 0.023$ ming soʻm.

2) Ishchi mashina va jihozlardan olinadigan samaraning kamayishi, yaʼni:
 $-0.765 \cdot 0.710 = -0.543$ ming soʻm.

Ikala omilning yigʻindisi

$0.023 + (-0.543) = -0.529$

yaʼni asosiy fondlardan olinadigan samara orasidagi farq teng.

Tahlil korxonada fond samaradorligi mashina va jihozlardan olinadigan samaradorlik hisobiga kamayganligi koʻrsatdi. Tahlillar va kuzatishlar bu holatni keltirib

chiqaruvchi sabablar mavjudligini ko'rsatdi. Ushbu holatga yana ham oydinlik kiritish maqsadida press tsexi misolida kuzatish va tadqiqot ishlarini davom ettirdik.

Press sexining asosiy faoliyati mazmunini po'lat rulonlardan tayyorlangan andozalardan avtomashina detallarini shakllantirish tashkil etadi. Bu sexda asosan 5 ta operatsiya bajariladi: shtampalash, shakl berish yoki formovka, tashqi doiralarni ochish va flantsovka qilish yoki kontur bo'yicha ortiqcha qismlarni kesib tashlash va belgilangan shablon yoki me'yorga muvofiqligini nazorat qilish. Bu sex 2 liniyadan iborat, kichik va katta liniya. Birinchi liniyada ishlov beriladigan xom ashyo miqdori turlicha bo'lgan 28 ta jihoz bo'lib, 110 tonnali 8ta, 150 tonnalidan 10 ta, 200 tonnalidan 8 ta, 250 tonnalidan 2 ta. Keyingi katta liniya esa ikkiga bo'linadi, 1000 tonnali 1 ta, 600 tonnali 1 ta, 400 tonnalidan 2 ta jihoz mavjud. Ikkinchi liniyada 1200 tonnalidan 1 ta, 800 tonnalidan 1 ta, 600 tonnalidan 1 ta, 400 tonnalidan 1 ta jihoz mavjud. Bu jihozlarning yillik ish kuni 204 kunni tashkil etishi rejalashtirilgan. Lekin jihozlar ish vaqti haqiqatda 202 kunni tashkil etgan. Ya'ni har bir jihoz 2 kundan kam ishlagan. Buning asosiy sababiga jihozlarning xom ashyo va materiallar bilan o'z vaqtida ta'minlanmasligi hamda rejali ogoxlantiruvchi ta'mirlash tizimi talablariga rioya etmasliklikni kiritish mumkin. Kuzaishlar ushbu sex bo'yicha ishchi va jihoz ish vaqtdan umumiy holda quyidagi yo'qotish mavjudligini ko'rsatdi. Bular tarkibiga xatoni tuzatishni, ya'ni me'yor bo'yicha to'g'ri ishlov berilmagan mahsulotni talab holatiga keltirish, unumsiz harakatlar uchun vaqtdan yo'qotish, ya'ni ish o'rinlaridagi palapartishlik tufayli zaruriy materiallarni yoki ish qurollarini qidirish. Kutish bilan bog'liq yo'qotishlar, ya'ni xom ashyo va materillarni kutish, jihozlarni ta'mirlashdan chiqishini kutish, tashish ya'ni ish qurollari va materiallarni qulay joyga joylashtirmasdan yoki avvaldan olib kelib qo'ymasdan, faqat shunga extiyoj paydo bo'lganda olib kelish. Buning natijasida kunlik 480 minutli smena davomiyligi tarkibidagi operativ vaqt ulushi me'yor bo'yicha 80 foizni tashkil etishi lozim bo'lsa, haqiqatda esa 60 yoki 65 foizni tashkil etgan. Ushbu xolat hisobiga kunlik mahsulot ishlab chiqarish hajmi kamaygan. Kunlik ishlab chiqarish quvvati sex bo'yicha 150 ta komplekt mahsulot bo'lgani xolda joriy yilda kunlik ishlab chiqarish unumdorligi 142 tani tashkil etgan. Buning hisobiga buyurtmalar rejasini to'liq bajarish uchun ishdan tashqari qo'shimcha ish tashkil etilgan. Natijada mahsulot xarajatlari ortib ketib korxonada daromadlari kamayib, rentabellik darajasi ham pasaygan. Shuningdek, fikrimizcha, belgilangan ta'mirlash jarayonlarini o'z vaqtida amalga oshirish, oldindan rejali ta'mirlashdan, ya'ni buyurtmalarni bajarishdagi uzluksizlikni ta'minlash uchun jihozni navbatdagi ta'mirlanishidan voz kechish bilan ham jihoz ish vaqtidagi katta yo'qotishlar kelib chiqmoqda. Chunki jihozlarning uzluksiz ishlashi natijasida ehtiyot qismlarining yeyilishi va ularni keltirish bilan bog'liq vaqtning uzayishi holatlari vujudga kelgan. Shuning uchun fikrimizcha, avvalo jihozlarni rejali ogoxlantiruvchi ta'mirlash tizimi qoidalaridan kelib chiqqan holda qa'tiy ta'mirlash jadvaliga rioya etish va ish o'rinlarini saqlash va ularga xizmat ko'rsatish talablarini o'zlashtirish bo'yicha ishchilar orasida instruktaj olib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shuningdek, ish o'rinlarini belgilangan talab doirasida saqlamaslik mahsulot sifati va miqdoriga ta'sir ko'rsatishi mumkinligini e'tiborga olib, belgilangan talablarga, qoidalarga rioya etmagan ishchilarga nisbatan keskin intizomiy choralarni ko'rish taklif etiladi. Intizomiy chora ko'rish tarkibiga birinchi marta ogohlantirish, ikkinchi marta esa ish haqidagi 20 foizgacha ushlab qolishni kiritish

mumkin. Albatta bu holatlar rahbar va ishchi bilan tuziladigan shartnoma bandlari sifatida kiritilishi lozim.

Yuqoridagi taklif iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini hisoblash bilan asoslandi. Yuqoridagi ish vaqtdan yo'qotishlar bartaraf qilinsa, ya'ni texnologik intizomga, rejali ogohlantiruvchi ta'mirlash tizimiga rioya etilsa operativ vaqt o'zining me'yor darajasiga chiqishi ta'minlanadi. Buning natijasida mehnat unumdorligini o'sishi quyidagiga teng bo'ladi:

$$\Delta MU = (384 - 312) : 384 * 100 = 19\%$$

Mahsulot ishlab chiqarish hajmi ham shunchaga oshadi.

Korxonada bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'sishini aniqlaymiz.

$$\Delta Q = 77497265 \times 1,19 = 92221745 \text{ ming so'm}$$

Ishlab chiqarish hajmining oshishi bilan tannarxdagi shartli-doimiy harajatlar bo'yicha iqtisodga erishiladi.

$$\Delta T = (1 - 1/1,19) \times 23 = 3,6\%$$

Pul ifodasida tannarxning kamayishi quyidagiga teng bo'ladi:

$$\Delta T = 50687290 \times 3,6 = 1824742 \text{ ming so'm}$$

Demak tannarx 1824742 ming so'mga kamayadi.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmining ko'payishi mashina va jihozlardan olinadigan samarani ham oshiradi. Avval samaradorlik 1030 so'm bo'lsa, ya'ni 1000 so'mlik asosiy jihozdandan 1030 so'mlik samara olingan bo'lsa, bu 1227 ming so'mga yetkaziladi ($92221745 : 75178276 = 1227$).

Xulosa qilish mumkinki, jihozlar ish vaqtdan yo'qotishlarni kamaytirish, texnologik intizomga rioya etishga qaratilgan tavsiyalarimiz natijasida mahsulot hajmining 19 foizga oshishiga, mahsulot tannarxining 3,6foizga kamayishiga hamda mashina va jihozlardan olinadigan samaraning 1227 so'mga yetkazilishiga erishildi. Taklif etilayotgan bu tavsiyalar ortiqcha mablag'larni talab etmaydi, balki ishlab chiqarishni oqilona tashkil etish hisobiga ishlab chiqarish imkoniyatlarini oshirish imkoniyatlarini amalga oshiriladi.

References:

1. Davlyatova G.M., Abdullaeva S.X. Iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishda me'yorlashtirishni takomillashtirish ahamiyati// "Iqtisodiy resurslardan samaradorligini oshirish yo'nalishlari" Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari.
2. A.Ortiqov Sanoat iqtisodiyoti / Darslik T.: "Sano-standart" , 2014.-304 b
3. Turovets O.G., Rodionova V.N. "Organizatsiya poizvodstva na predpriyatii" Uchebnoe posobie. M.: INFRA-M 2009 – 425c.
4. Sinitsa L.M. "Organizatsiya poizvodstva" Uchebnik. Minsk 2018 -512c
5. "UZSUNGWOO" MCHJ korxonasi ma'lumotlari